MAXSUS IQTISODIY ZONALARDA SOLIQ MA'MURIYATCHILIGINI TAKOMILLASHTIRISHNING METODOLOGIK YONDASHUVLARI.....	719
<b>To'rayeva Nafisa Odiljonovna</b>	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA ALOQA XIZMATLARI BOZORINI RIVOJLANTIRISHNING INSTITUTSIONAL VA METODOLOGIK ASOSLARI.....	724
<b>Xazratov Abror Panjiyevich</b>	
AUDITORLIK DALILLARI VA ULARNI HUIJATLASHTIRISH JARAYONINING MUHIM JIHLTLARI.....	730
<b>G'aniev Z.U.</b>	
ПОВЫШЕНИЕ ПОРОГА ПЕРЕХОДА НА НДС КАК НАЛОГОВЫЙ ИНСТРУМЕНТ СТИМУЛИРОВАНИЯ РАЗВИТИЯ МАЛОГО БИЗНЕСА В УЗБЕКИСТАНЕ.....	736
<b>Буранова Лола Вахобовна</b>	
<b>Садиков Искандар Гайратович</b>	



<b>IQLIM O'ZGARISHI SHAROITIDA SUV RESURSLARIDAN SAMARALI FOYDALANISH YO'LLARI</b> .....	744
<b>Turgunbayev Utkir Begimovich</b> BUDJET TASHKILOTLARIDA ICHKI AUDITNING IQTISODIY MOHIYATI, MAQSADI VA INSTITUTSIONAL O'RNI .....	749
<b>Saitmuratov Saitmurat Masharip o'g'li</b> KELAJAK STRATEGIYASI INNOVATSION HR-SIYOSATLAR VA YOSH KADRLAR BILAN ISHLASHNING KONSEPTUAL MODELII .....	755
<b>Abiyev Jahongir Ne'matovich</b> BUDJET TASHKILOTLARIDA ICHKI AUDIT O'TKAZISH JARAYONINING USLUBIY TAHLILI .....	761
<b>Saitmuratov Saitmurat Masharip o'g'li</b> AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA KORPORATIV BOSHQARUV TIZIMINI RAQAMLI TRANSFORMATSIYA ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI .....	767
<b>Ashurov Furkatjon Shuxratovich</b> ОПЫТ ВЕДУЩИХ ЗАРУБЕЖНЫХ СТРАН В НАЛОГООБЛОЖЕНИИ ХОЗЯЙСТВУЮЩИХ СУБЪЕКТОВ.....	771
<b>Курбанов Рустам Раджапович</b> FOND BOZORI ORQALI XUSUSIYLASHTIRISH: POLSHA TAJRIBASI, O'ZBEKISTONDA QO'LLASH IMKONIYATLARI .....	775
<b>Chinqulov Qahramon Ravshanovich</b> SAMARQAND QISHLOQLARIDA "OILAVIY MEHMON UYLARI" (GUEST HOUSES) VA EKOTURIZMNI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI: ISHCHI KUCHI VA KAPITAL NAZARIY TAHLILI.....	781
<b>Ozoda Pardayeva</b> YASHIL INNOVATSIYALARNING O'ZBEKISTONDAGI IQTISODIY ROLI .....	787
<b>Mamatsoliyev Muhammadjon</b> SUV TANQISLIGI SHAROITIDA SOHANI RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA BOSHQARISH (XORIJ TAJRIBASI).....	793
<b>Akbarova Shaxnoza Yakub qizi</b> IQLIM O'ZGARISHI SHAROITIDA O'ZBEKISTONDA ASALARICHILIK TARMOG'INI DAVLAT TOMONIDAN QO'LLAB-QUVVATLASH MEXANIZMLARI SAMARADORLIGINI OSHIRISH.....	797
<b>Farmanov Jonibek Ziyadullayevich</b> RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA NEFT-GAZ SANOATI KORXONALARIDA AXBOROT ALMASHINUVINI TAKOMILLASHTIRISH "Muborak gazni qayta ishlash zavodi MCHJ misolida" .....	802
<b>Abdullayev Munis</b> TIJORAT BANKLARIDA XIZMAT KO'RSATISH SOHASINI KREDITLASHNING IQTISODIY MOHIYATI VA UNING MILLIY IQTISODIYOT RIVOJLANISHIDAGI AHAMIYATI .....	809
<b>Nurmuxammedov Abdijabbar Yunusovich</b> AXBOROT-KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARI (AKT) INFRATUZILMASIDA AKTIVLARNI BOSHQARISHDA ISO/IEC 55000 STANDARTINI QO'LLASH .....	816
<b>Suleymanov Farrux Raximjon o'g'li</b> O'ZBEKISTONDA KICHIK VA O'RTA BIZNESNI KREDITLASHNI RIVOJLANTIRISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING O'RNI.....	822
<b>Karimova Aziza Maxomadrizoyevna</b> <b>Abduraxmonov Faridun Firo'z o'g'li</b> BANKLARNING MOLIYAVIY BARQARORLIGINI XALQARO USULLAR VA MEZONLAR ASOSIDA BAHOLASHNI TAKOMILLASHTIRISH.....	827
<b>G'aybulloyev Suxrob Odil o'g'li</b>	



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI TIJORAT BANKLARINING AKTIVLARINI BOSHQARISH BILAN BOG'LIQ AMALIY VA USLUBIY MUAMMOLAR.....	834
<b>Baxriddinov Sharofiddin</b>	
XIZMAT KO'RSATISH TIZIMINI BARQAROR RIVOJLANTIRISHDA XALQARO MARKETING STRATEGIYALARINING NAZARIY VA AMALIY JIHATLARI.....	842
<b>Otajanov Umid Abdullayevich</b>	
<b>Isakova Naima Ikromjonovna</b>	
РАЗВИТИЕ РЫНКА ЗЕЛЁНЫХ ОБЛИГАЦИЙ И АНАЛИЗ ЭФФЕКТИВНОСТИ ESG-ФИНАНСИРОВАНИЯ.....	848
<b>И. Р. Бердикулова</b>	
INSURTECH PLATFORMALARI ASOSIDA SUG'URTA XIZMATLARINI RAQAMLI TRANSFORMATSIYA QILISH VA MOLIYAVIY SAMARADORLIKNI OSHIRISH YO'LLARI.....	852
<b>Xakimzoda Maftuna Yusuf qizi</b>	
ИННОВАЦИОННЫЕ ИНСТРУМЕНТЫ ФИНАНСИРОВАНИЯ МЕЖДУНАРОДНОЙ ТОРГОВЛИ В ЗАРУБЕЖНОЙ ПРАКТИКЕ: БЛОКЧЕЙН, ФИНТЕХ И ЦИФРОВЫЕ ТЕХНОЛОГИИ.....	857
<b>Ражаббаева Махфуза Султанбой кизи</b>	
<b>Абдуллаев Анвар Фарходович</b>	
OILAVIY KORXONALAR FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHDA BANKLARNING O'RNI.....	861
<b>Fayziyev X.</b>	
<b>Toshtemirov M.</b>	



# OILAVIY KORXONALAR FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHDA BANKLARNING O'RNINI

Fayziyev X., Toshtemirov M.  
Samarqand iqtisodiyot va servis instituti  
BI-322 guruh talabalari

Ilmiy rahbar: Abduraxmanov A.S.  
Samarqand iqtisodiyot va servis instituti "Bank ishi" kafedrasida assistenti

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada oilaviy korxonalar faoliyatini rivojlantirishda banklarning tutgan o'рни, ularning moliyaviy qo'llab-quvvatlash mexanizmlari hamda kichik biznes subyektlarini kreditlashning iqtisodiy ahamiyati o'rganilgan. Oilaviy korxonalarining barqaror faoliyat yuritishi va raqobatbardoshligini oshirishda bank kreditlari, imtiyozli moliyalashtirish dasturlari va zamonaviy bank xizmatlarining ahamiyati tahlil qilingan. Shuningdek, oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirishda banklar tomonidan amalga oshirilayotgan qo'llab-quvvatlash choralarini va ularni takomillashtirish yo'nalishlari yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** oilaviy korxonalar, oilaviy tadbirkorlik, bank krediti, moliyalashtirish, kichik biznes, bank xizmatlari, investitsiyalar, tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash.

**Abstract.** This article examines the role of banks in the development of family businesses, the mechanisms of financial support provided by banks, and the economic significance of lending to small business entities. The study analyzes the importance of bank loans, preferential financing programs, and modern banking services in ensuring sustainable business operations and enhancing the competitiveness of family enterprises. Furthermore, the measures taken by banks to support family entrepreneurship and the directions for their improvement are discussed.

**Keywords:** family enterprise, family entrepreneurship, bank loan, financing, small business, banking services, investments, entrepreneurship support.

**Аннотация.** В данной статье исследуется роль банков в развитии деятельности семейных предприятий, механизмы их финансовой поддержки и экономическое значение кредитования субъектов малого бизнеса. Проанализировано значение банковских кредитов, льготных программ финансирования и современных банковских услуг в обеспечении устойчивой деятельности и повышении конкурентоспособности семейных предприятий. Также рассмотрены меры поддержки семейного предпринимательства со стороны банков и направления их совершенствования.

**Ключевые слова:** семейное предприятие, семейное предпринимательство, банковский кредит, финансирование, малый бизнес, банковские услуги, инвестиции, поддержка предпринимательства.

## KIRISH

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar tizimida oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Bugungi kunda oilaviy tadbirkorlik aholi bandligini ta'minlash, daromad manbalarini ko'paytirish, iqtisodiy faol aholi qatlamini kengaytirish orqali mamlakatda ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlashda muhim rol o'ynamoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyev tomonidan ilgari surilgan "Oila — jamiyatning tayanchi" tamoyili asosida oilalarning iqtisodiy mustaqilligini ta'minlash, ularda tadbirkorlik ko'nikmalarini shakllantirish, ularni biznesga jalb etish, ijtimoiy himoya tizimini kuchaytirish kabi bir qator islohotlar amalga oshirilmogda.

Statistik ma'lumotlarga qaraganda, 2025-yilda O'zbekiston Respublikasi hududlarida faoliyat yuritayotgan oilaviy tadbirkorlik subyektlarining umumiy soni 1,5 mln dan oshdi, bu esa 2024-yilga nisbatan 20 foizga ko'pdir. Jumladan, oilaviy tadbirkorlik orqali yaratilgan yangi ish o'rinlari soni 250 mingdan ortiq bo'lib, bu oila iqtisodiyotida bandlik va daromad manbalarining muhimligini ko'rsatadi.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 20-dekabrda PQ-55-son qarori [1] bilan oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish va aholining daromad manbaini kengaytirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar belgilangan. Ushbu hujjat asosida aholi uchun imtiyozli kreditlar ajratish, biznes loyihalarini qo'llab-quvvatlash va tadbirkorlik tashabbuslarini rag'batlantirish mexanizmlari kengaytirilmogda.



Bank tizimi tomonidan 2021–2025-yillar davomida oilaviy tadbirkorlik subyektlariga ajratilgan kreditlar hajmi 4,2 trln soʻmdan 8,4 trln soʻmgacha oʻsgan. Bu esa oilaviy biznesga davlat tomonidan moliyaviy qoʻllab-quvvatlashning ortib borayotganini tasdiqlaydi.

Shu bilan birga, amaldagi islohotlar va dasturlar samaradorligini yanada oshirish zarurati mavjud. Oilaviy tadbirkorlikda duch kelinayotgan muammolar:

- moliyaviy resurslarning yetarlicha qulay va tezkor boʻlmasligi;
- bank xizmatlari va kredit olish jarayonidagi tartib-taomillarning murakkabligi;
- moliyaviy savodxonlik darajasini oshirish zarurati;
- ayrim hududlarda bank infratuzilmasini yanada rivojlantirish zarurati;
- innovatsion moliyaviy mahsulotlar koʻlamini kengaytirish zarurati.

Shu sababli, oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish dasturlari doirasida banklar tomonidan amalga oshirilgan ishlarni oʻrganish, ularning iqtisodiy samaradorligini tahlil qilish, mavjud muammolarni aniqlab, ularni bartaraf etish yoʻllarini ishlab chiqish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi.

Maqolaning dolzarbligi shundan iboratki, oilaviy tadbirkorlik orqali ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikka erishish, yangi ish oʻrinlarini yaratish va oilalarning daromad manbalarini koʻpaytirish borasida bank-moliya xizmatlarining rolini oʻrganish, mavjud tizimni takomillashtirish yoʻnalishlarini tahlil qilish hamda aniq ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqish boʻyicha aniq ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqishga ehtiyoj yuqori.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Oila tadbirkorligini rivojlantirish dasturi doirasida banklar tomonidan amalga oshirilgan ishlarning ahamiyatli jihatlari boʻyicha bir qator xorijiy va mahalliy iqtisodchi olimlar tomonidan ilmiy izlanishlar olib borilgan. Jumladan, mahalliy tadqiqotchilar A. X. Raximov, M. T. Qoʻchqorov, N. R. Saidova hamda xorijiy mutaxassislar L. Brixman, J. Todaro, R. Chambers kabi olimlar ushbu dastur orqali oilaviy biznesni qoʻllab-quvvatlash, moliyaviy inklyuziyani kengaytirish va bank xizmatlarining mikroiqtisodiy taʼsiri yuzasidan ilmiy ishlanmalar yaratganlar. Biroq, bu sohadagi koʻplab tadqiqotlar dastur doirasida ajratilgan imtiyozli kreditlar va bank xizmatlarining umumiy tavsifi bilan chegaralangan boʻlib, ularni aniq tijorat banklari tomonidan amalga oshirilgan amaliy faoliyat natijalari, xususan, oila tadbirkorligi subyektlarining iqtisodiy oʻsishiga taʼsiri bilan bogʻlab oʻrganish ehtiyoji yuqoriligicha qolmoqda.

Oila tadbirkorligini rivojlantirishda bank xizmatlarining mavjud tizimi tahlil qilinib, samaradorligini oshirish uchun ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi. Ilmiy yangilik shundan iboratki, diplom ishida oilaviy biznes subyektlariga moslashtirilgan innovatsion bank mahsulotlari konsepsiyasi taklif etildi.

Mazkur maqolada ishlab chiqilgan ilmiy-amaliy tavsiyalar banklar tomonidan oilaviy tadbirkorlik subyektlarini qoʻllab-quvvatlash, xizmatlarni takomillashtirishda, kreditlash tizimini qulaylashtirishda amaliy foydalanish imkoniyatiga ega.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda oilaviy korxonalar faoliyatini rivojlantirishda tijorat banklarining oʻrni va ahamiyatini baholashga qaratilgan ilmiy yondashuvlar qoʻllanildi. Tadqiqot jarayonida umumilmiy va maxsus iqtisodiy tadqiqot usullaridan foydalanildi.

Xususan, oilaviy tadbirkorlik va bank-moliya tizimi oʻrtasidagi oʻzaro bogʻliqlikni oʻrganishda tizimli tahlil usuli qoʻllanildi. Ushbu usul yordamida oilaviy korxonalarni moliyalashtirish mexanizmlari, kreditlash jarayonlari va davlat tomonidan yaratilgan institutsional sharoitlar kompleks ravishda tahlil qilindi.

Tadqiqot davomida qiyosiy tahlil usuli asosida Oʻzbekistonda oilaviy korxonalarni qoʻllab-quvvatlash boʻyicha amalga oshirilayotgan bank xizmatlari xorijiy mamlakatlar tajribasi bilan solishtirildi. Natijada oilaviy biznesni rivojlantirishga xizmat qiluvchi samarali moliyaviy vositalar va amaliy mexanizmlar aniqlandi.

Statistik tahlil usuli yordamida Oʻzbekiston Respublikasi Markaziy banki, Oʻzbekiston Respublikasi Milliy statistika qoʻmitasi, Iqtisodiyot va moliya vazirligi hamda tijorat banklarining rasmiy maʼlumotlari oʻrganildi. Oilaviy tadbirkorlik subyektlariga ajratilgan kreditlar hajmi, ularning iqtisodiyotdagi ulushi, yangi tashkil etilgan korxonalar soni va bandlik koʻrsatkichlari dinamikasi tahlil qilindi.

Shuningdek, induksiya va deduksiya usullari orqali oilaviy korxonalarni moliyalashtirish amaliyotidagi mavjud muammolar aniqlanib, ularni bartaraf etishga qaratilgan ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi. Grafik va jadval tahlili usullari esa tadqiqot natijalarini vizual koʻrinishda aks ettirish hamda banklarning oilaviy biznes rivojlanishiga taʼsirini baholash imkonini berdi.



Tadqiqotning metodologik asosini oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish, kichik biznesni moliyalashtirish va bank faoliyati samaradorligini oshirishga oid mahalliy va xorijiy olimlarning ilmiy ishlari, normativ-huquqiy hujjatlar hamda xalqaro moliyaviy institutlarning tavsiyalari tashkil etadi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Bozor iqtisodiyoti sharoitida oilaviy korxonalar mamlakat iqtisodiyotining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Ular aholi bandligini ta'minlash, oilalarning daromad manbalarini kengaytirish, mahalliy bozorlarda raqobat muhitini shakllantirish va hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga xizmat qilmoqda. Shu sababli oilaviy korxonalar faoliyatini rivojlantirishda tijorat banklarining moliyaviy ko'magi va institutsional yordami alohida ahamiyat kasb etadi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, oilaviy korxonalarining rivojlanish darajasi ko'p jihatdan ularning moliyaviy resurslarga kirish imkoniyatlariga bog'liq. Korxonalarining asosiy qismi faoliyatini boshlash yoki kengaytirish jarayonida yetarli miqdordagi o'z mablag'lariga ega emas. Natijada bank kreditlari va boshqa moliyaviy vositalar ularning investitsion faoliyatini moliyalashtirishning asosiy manbaiga aylanmoqda. Ayniqsa, ishlab chiqarish, hunarmandchilik, servis xizmatlari va qishloq xo'jaligi sohalarida faoliyat yuritayotgan oilaviy korxonalar uchun bank kreditlari biznesning barqaror rivojlanishini ta'minlovchi muhim omil hisoblanadi.

So'nggi yillarda tijorat banklari tomonidan oilaviy tadbirkorlik subyektlarini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan maxsus kredit dasturlari joriy etildi. Ushbu dasturlar doirasida imtiyozli foiz stavkalari, uzoq muddatli kreditlar hamda qulay to'lov grafiklari taklif etilmoqda. Natijada ko'plab oilaviy korxonalar yangi uskunalar xarid qilish, ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish va xizmatlar ko'lamini oshirish imkoniyatiga ega bo'lmoqda. Bu esa ishlab chiqarish hajmining ortishi, mahsulot sifatining yaxshilanishi va korxonalar raqobatbardoshligining oshishiga olib kelmoqda.

Tadqiqot davomida aniqlanishicha, bank kreditlari hisobidan moliyalashtirilgan oilaviy korxonalarda mehnat unumdorligi va daromadlilik darajasi nisbatan yuqori bo'lmoqda. Kredit mablag'lari korxonalar tomonidan zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, innovatsion uskunalar xarid qilish va ishlab chiqarish jarayonlarini modernizatsiya qilishga yo'naltirilmoqda. Bu esa korxonalarining ichki va tashqi bozorlardagi pozitsiyasini mustahkamlashga xizmat qilmoqda.

Shuningdek, tijorat banklari tomonidan ko'rsatilayotgan maslahat xizmatlari ham oilaviy biznes rivojida muhim rol o'ynamoqda. Bank mutaxassislari tomonidan biznes-rejalarni ishlab chiqish, investitsion loyihalarni baholash, moliyaviy risklarni boshqarish va pul oqimlarini samarali tashkil etish bo'yicha berilayotgan tavsiyalar korxonalar faoliyatining samaradorligini oshirishga yordam bermoqda. Natijada kredit mablag'laridan maqsadli foydalanish darajasi ortib, kredit portfelining sifati yaxshilanmoqda.

Biroq olib borilgan tahlillar oilaviy korxonalarining moliyalashtirish tizimida ayrim muammolar saqlanib qolayotganligini ham ko'rsatdi. Jumladan, ko'plab tadbirkorlar uchun kredit olishda garov ta'minotining yetishmasligi asosiy to'siqlardan biri bo'lib qolmoqda. Ayrim hollarda korxonalar yetarli moliyaviy hisobot va biznes-rejalarga ega bo'lmagani sababli kredit mablag'larini jalb qilish imkoniyatidan foydalana olmayapti. Bundan tashqari, ayrim hududlarda tadbirkorlarning moliyaviy savodxonlik darajasini oshirish bank xizmatlaridan samarali foydalanishda muhim omil hisoblanadi.

Raqamli transformatsiya jarayonlari banklarning oilaviy korxonalar bilan ishlash samaradorligini yanada oshirmoqda. Xususan, onlayn kreditlash platformalari, mobil ilovalar, internet-banking va masofaviy identifikatsiya tizimlari tadbirkorlarning vaqt va xarajatlarini qisqartirish imkonini bermoqda. Natijada moliyaviy xizmatlardan foydalanish qulayligi ortib, kredit ajratish jarayonlarining tezligi oshmoqda. Bu esa, ayniqsa, chekka hududlarda faoliyat yuritayotgan oilaviy korxonalar uchun muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Tahlillar natijasida aniqlanishicha, banklar tomonidan oilaviy korxonalariga ajratilayotgan kredit mablag'larining ko'payishi yangi ish o'rinlari yaratish ko'rsatkichlariga ham ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda. Oilaviy korxonalar faoliyatining kengayishi natijasida aholi bandligi ta'minlanib, hududlarda tadbirkorlik muhiti rivojlanmoqda. Bu esa mamlakatda kambag'allikni qisqartirish va aholi farovonligini oshirish bo'yicha amalga oshirilayotgan islohotlarning samaradorligini kuchaytirmoqda.

Olib borilgan tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, oilaviy korxonalar faoliyatini rivojlantirishda tijorat banklari nafaqat moliyalashtiruvchi institut, balki biznesning strategik hamkori sifatida ham muhim ahamiyatga ega. Banklar tomonidan taqdim etilayotgan kreditlar, moliyaviy maslahatlar, raqamli xizmatlar va investitsion qo'llab-quvvatlash mexanizmlari oilaviy korxonalarining iqtisodiy barqarorligi va raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qilmoqda.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari oilaviy korxonalarini rivojlantirish uchun banklar tomonidan taqdim etilayotgan moliyaviy xizmatlar ko'lamini kengaytirish, kreditlash shartlarini yanada soddalashtirish, garovsiz yoki kafillik asosidagi moliyalashtirish mexanizmlarini takomillashtirish hamda tadbirkorlarning moliyaviy



savodxonligini oshirish zarurligini ko'rsatdi. Mazkur chora-tadbirlarning amalga oshirilishi oilaviy biznes subyektlarining iqtisodiy faoliyatini yanada faollashtirib, mamlakat iqtisodiy taraqqiyotiga sezilarli hissa qo'shadi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, oilaviy korxonalar mamlakat iqtisodiyotining muhim tarkibiy qismi sifatida aholi bandligini ta'minlash, daromadlar darajasini oshirish va hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishda muhim o'rin tutadi. Ushbu korxonalarining barqaror faoliyat yuritishi va rivojlanishi ko'p jihatdan moliyaviy resurslardan foydalanish imkoniyatlariga bog'liq bo'lib, bu jarayonda tijorat banklari asosiy moliyaviy institut sifatida namoyon bo'ladi.

Tadqiqot davomida aniqlanishicha, banklar tomonidan ajratilayotgan kreditlar va boshqa moliyaviy xizmatlar oilaviy korxonalarining ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, yangi ish o'rinlari yaratish va raqobatbardoshligini oshirishga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Shu bilan birga, kredit olish jarayonlarida garov ta'minoti bilan bog'liq muammolar, moliyaviy hisobotlarning yetarli darajada yuritilmasligi hamda ayrim tadbirkorlarning moliyaviy savodxonligi pastligi oilaviy biznes rivojlanishining asosiy cheklovchi omillari sifatida namoyon bo'lmoqda.

Tahlillar natijasida tijorat banklarining oilaviy korxonalar faoliyatidagi roli nafaqat moliyalashtirish bilan, balki maslahat xizmatlari, biznes-loyihalarni ekspertizadan o'tkazish, investitsion loyihalarni baholash va raqamli moliyaviy xizmatlarni taqdim etish orqali ham namoyon bo'lishi aniqlandi. Bu esa banklarning oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirishdagi strategik ahamiyatini yanada oshirmoqda.

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi takliflar ishlab chiqildi:

1. Oilaviy korxonalarini kreditlash bo'yicha maxsus bank dasturlarini kengaytirish va ularga ajratilayotgan moliyaviy resurslar hajmini oshirish maqsadga muvofiq.

2. Kredit olishda garov ta'minoti bilan bog'liq muammolarni kamaytirish uchun kafillik fondlari va sug'urta mexanizmlaridan foydalanish amaliyotini rivojlantirish zarur.

3. Tijorat banklari tomonidan oilaviy tadbirkorlar uchun moliyaviy savodxonlikni oshirishga qaratilgan o'quv dasturlari, seminarlar va maslahat xizmatlarini kengaytirish lozim.

4. Oilaviy korxonalar uchun raqamli bank xizmatlari, jumladan, onlayn kreditlash, mobil bank xizmatlari va masofaviy maslahat xizmatlarini takomillashtirish tavsiya etiladi.

5. Banklar va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlovchi tashkilotlar o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish orqali biznes-loyihalarni tayyorlash va moliyalashtirish samaradorligini oshirish zarur.

6. Oilaviy korxonalarining eksport salohiyatini oshirish maqsadida tijorat banklari tomonidan eksportoldi moliyalashtirish va tashqi savdo operatsiyalariga xizmat ko'rsatish mexanizmlarini kengaytirish maqsadga muvofiq.

7. Oilaviy korxonalarini moliyalashtirishda zamonaviy fintech texnologiyalari va muqobil moliyalashtirish instrumentlaridan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish lozim.

Umuman olganda, tijorat banklari tomonidan oilaviy korxonalarini moliyaviy va institutsional qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini takomillashtirish ushbu sektorning barqaror rivojlanishini ta'minlash, yangi ish o'rinlarini yaratish va mamlakat iqtisodiyotining raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi. Shu bois banklar va oilaviy tadbirkorlik subyektlari o'rtasidagi samarali hamkorlikni rivojlantirish iqtisodiy siyosatning ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib qolishi zarur.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 20-dekabrda PQ-55-son "Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish va aholining daromad manbaini kengaytirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi. — URL: <https://lex.uz/docs/-5785317>

2. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. Pul-kredit siyosatining 2024-yil yakunlari va 2025-yilga mo'ljallangan asosiy yo'nalishlari. — Toshkent, 2025.

3. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyati bo'yicha statistik ma'lumotlar. — Toshkent, 2025. — URL: <https://stat.uz>

4. O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi. O'zbekiston Respublikasining 2024-yildagi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish yakunlari to'g'risidagi hisobot. — Toshkent, 2025.

5. Mirziyoyev Sh. M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. — Toshkent: O'zbekiston, 2023. — 464 b.

6. Abdullayev Yo., Qosimov B. Bank ishi. — Toshkent: Iqtisod-Moliya, 2023. — 512 b.

7. Vahobov A. V., Malikov T. S. Moliya. — Toshkent: Iqtisod-Moliya, 2024. — 640 b.

8. Isroilov B. I. Kichik biznes va tadbirkorlikni moliyalashtirishning zamonaviy mexanizmlari // Biznes-Ekspert. — 2024. — № 4. — B. 35–42.



9. Ergashev A. A. Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirishning iqtisodiy asoslari // Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar. — 2024. — № 6. — B. 88–97.
10. World Bank. Enhancing Access to Finance for Small and Medium Enterprises. — Washington, DC: World Bank Publications, 2024.
11. International Finance Corporation. MSME Finance Gap Assessment Report 2024. — Washington, DC: IFC, 2024.
12. Asian Development Bank. Asian Development Outlook 2025: Financing Small Businesses for Sustainable Growth. — Manila: Asian Development Bank, 2025.
13. Organisation for Economic Co-operation and Development. Financing SMEs and Entrepreneurs 2025: An OECD Scoreboard. — Paris: OECD Publishing, 2025.
14. European Bank for Reconstruction and Development. Transition Report 2024–2025: Small Business Development and Financial Inclusion. — London: EBRD, 2025.



## IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**Ingliz tili muharriri:** Feruz HAKIMOV

**Musahhih:** Zokir ALIBEKOV

**Sahifalovchi va dizayner:** Hasan MAQSUDOV

---

**2026. № 5 (3)**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

EI.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot\_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot\_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>